O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI BUXORO VILOYATI G‘IJDUVON TUMANI HOKIMINING

Q A R O R I

200500, G‘ijduvon tumani, Mustaqillik maydoni 2-uy. Tel: (365) 572-12-35, faks: (365) 572-13-33, e-mail: gijduvon_th@umail.uz

2022 - yil 21 - dekabr 556-2-34-Q/22 G‘ijduvon tuman hokimligi

G‘ijduvon tumani hududida umumfoydalanuvidagi avtomobil yo‘llariva markaziy ko‘chalarida fuqarolar va transport vositalarini harakati xavfsizligini ta’minlash, yo‘l transporti hodisalarini oldini olish maqsadida yo‘l belgilari o‘rnatish to‘g‘risida

“Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6, 25-moddalari, “Yo‘l harakati xavfsizligi to‘g‘risida”gi Qonunining 7-moddasi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 12-apreldagi 172-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Yo‘l harakati Qoidalari” talablariga asosan G‘ijduvon tuman hududida yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha profilaktik-ogohlantirish va og‘ir oqibatli yo‘l-transport hodisalarining oldini olish borasidagi ishlar samaradorligini oshirish yuzasidan tegishli tashkilotlar bilan hamkorlikda amalga oshirilishi lozim bo‘lgan keng ko‘lamli tashkiliy va amaliy chora-tadbirlar rejasini ijrosini ta’minlash maqsadida,

Q A R O R Q I L A M A N:

1. G‘ijduvon tuman hududida umumfoydalanuvidagi avtomobil yo‘llari va markaziy ko‘chalarida fuqarolar va transport vositalarini harakati xavfsizligini ta’minlash, yo‘l transporti hodisalarini oldini olish maqsadida o‘rnatilishi lozim bo‘lgan yo‘l belgisi va manzili 1-ilovaga asosan tasdiqlansin hamda mazkur yo‘l belgisini o‘rnatishga ruxsat berilsin.

2. G‘ijduvon tuman Ichki ishlar bo‘limi boshlig‘i A.Xoliqov, tuman ichki ishlar bo‘limi Yo‘l harakati xavfsizligi bo‘linmasi boshlig‘i J.Tashpulatov va tuman yo‘llardan foydalanish unitar korxonasi direktori E.Farmonovga tuman hududida umumfoydalanuvidagi avtomobil yo‘llari va markaziy ko‘chalarida fuqarolar va transport vositalarini harakati xavfsizligini ta’minlash, yo‘l transporti

hodisalarini oldini olish maqsadida yo‘l belgilarini o‘rnatish va doimiy nazorat qilish vazifasi yuklatilsin.

3. Mazkur qaror “G‘ijduvon” gazetasida e’lon qilinsin hamda hokimlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

4. Ushbu qaror rasman e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

5. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosariA.Axmedov zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi **Sh.Ashurov**

G‘ijduvon tuman hokimining
2022 yil 21 dekabrdagi
556-2-34-Q/22-son qaroriga
1-ilova

Tuman hududida umumfoydalanuvidagi avtomobil yo‘llari va markaziyko‘chalarida fuqarolar va transport vositalarini harakati xavfsizligini ta’minlash, yo‘l transporti hodisalarini oldini olish maqsadida o‘rnatilishi lozim bo‘lgan yo‘l belgisi va manzili

RO‘YXATI

№	Yo‘l belgisi o‘rnatilgan manzil nomi	Yo‘l belgisini nomi
1.	A.G‘ijduvoniy MFY A.G‘ijduvoniy ko‘chasidan o‘tuvchi 4k151 “G‘ijduvon-Yangirabot-Yosman-Vobkent ” avtomobil yo‘lining 0,5 km o‘ng va chap tomonida	3.27 “To‘xtash taqiqlanadi” yo‘l belgisi